



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

2023/4

**TA'LIM VA
INNOVATION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**



Abduraxmanov SH. N. O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda sharq mutafakkirlarining ta'lim- tarbiyaviy ahamiyoti	118
Abduraxmonova Sh. R., Tillaboyev A. M. Oliy ta'lim muassasalarida astronomiyadan kuzatishlarni tashkil etish metodikasi	121
Akramova G. M. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy faoliyatga deontologik tayyorligi mohiyati	125
Арипова Е. А., Ким И. Л., Сурков Д. Ю. Математика — это весело?	129
Бабаева Ш. Б. Алгоритмическая система упражнений по моделированию синтаксических понятий в обеспечивании непрерывности на уроках родного языка в начальных классах	137
Baxriddinov N. B. Kredit-modul tizimida talabalarning ta'lim olish imkoniyatlari, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda didaktikaning ahamiyati	143
Bobonazarov O. A. Bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishning falsafiy va pedagogik-psixologik jihatlar	147
Bozorov A. B. Zargarlik san'atining dunyo xalqlari hayotidagi o'rni va ahamiyati	152
Гулямов Дж. Р., Акрамова Г. Р., Азимжонов Р. Р. К вопросу педагогического отклонения в поведении учащихся: сущность, факторы и причины возникновения	155
Джабборова Ю. Дж. Махмудхўжа Бехбудийнинг ҳуқуқ соҳасидаги ислохотлари	163
Djurayeva M. Tarbiyalanuvchilarni gimnastika sport faoliyatiga hissiy-irodaviy tayyorlash shart-sharoitlari	168
Ermuminov A. T. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish muamosi	171
Ibadullaeva Sh. I. Organization of inclusive education in art classes.	176
Ismatullaeva S. R. Dzyudo sport turi bo'yicha kattalar o'rtasida toshkent "grand slam" 2023- taxlil natijalari	182
Irisboyeva Y. U. Muloqotga yordam beruvchi omillar va to'siqlarni o'rganish va tahlili	190
Jumageldiyeva M. A., Tillaboyev A. M. Umumiy o'rta ta'lim maktablarda astronomiyadan nomoyishli ko'rgazmalar o'tkazish	195
Jumayeva F. F. Formation of legal consciousness among elementary school students as a pedagogical problem	199
Каримова М. Ж. Амир Темурнинг ҳарбий фаолияти	205
Mamatov D. K. Chizmachilik darsida talabalarda kognitiv kompetensiyani rivojlantirish texnologiyasi	210
Mamatqulov Shuxrat Nazarovich Ilg'or xorij tajribasi asosida maktablarda ta'limni tashkil etishning zamonaviy usullari	217
Махмудов М.К. Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчилари педагогик қобилиятлари таснифи	222
Muhammadiyeva Z. B. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning ijodkorlik kompetentligini shakllantirish metodikasi	227
Musayev A. Sh. Mustaqil ta'limni tashkil etishda ta'lim platformalari bilan ishlashning samaradorligi	233
Nasimova N. Q. Integrativ yondashuv asosida maktabgacha yoshidagi bolalarda tayanch kompetensiyalarini takomillashtirish uchun tarbiyachilarga qo'yiladigan talablar.	239
Omonova R. R. Tasviriy san'at darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanib o'quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish muommolari	245
Qodirov J. M. Qishloq maktab o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda yangicha yondashuv holatining hozirgi vaqtdagi ahvoli hamda didaktik imkoniyatlari	250
Rahmonov I. U., Niyozov N. N., Nematov L. A. Virtual laboratoriyalar va o'quv simulyatorlari: afzallik va kamchiliklar	254
Raxmonqulov X. B. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish texnologiyasi samaradorligi	260



**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA
YOSHIDAGI BOLALARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH UCHUN TARBİYACHILARGA QO'YILADIGAN
TALABLAR**

**ТРЕБОВАНИЯ К ВОСПИТАТЕЛЯМ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ
ОСНОВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ДОШКОЛЬНИКОВ НА ОСНОВЕ
ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА**

**REQUIREMENTS FOR EDUCATORS TO IMPROVE THE BASIC
COMPETENCIES OF PRESCHOOLERS BASED ON AN INTEGRATIVE
APPROACH**

Nasimova Nasiba Qurbon qizi

*Buxoro davlat universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha | ta'lim) 1- bosqich tayanch doktoranti n.q.nasimova@buxdu.uz*

Насимова Насиба Курбан кизи

*Бухарский государственный университет Теория и методика образования
и обучения (дошкольное | образование) 1 ступень базовая докторант*

Nasimova Nasiba Kurban kizi

*Bukhara State University Theory and methods of education and training
(preschool | education) 1st stage basic doctoral student*

Annotatsiya: Maqolada integrativ yondashuv orqali maktabgacha yoshidagi bolalarda tayanch kompetensiyalarini takomillashtirish uchun tarbiyachilarga qo'yiladigan talablar haqida yoritib berilgan. Har bir pedagog o'z kasbini yaxshi mutaxassisi bo'lsagina yosh avlodga so'ngi texnologiyalardan foydalangan holda va bir qancha bolalarga tushuntirish oson bo'lgan, bola ongiga tezroq singadigan, shu bilan bir qatorda bolalarni qiziqtiradigan metodlardan foydalanib tarbiyalanuvchilarga ta'lim va tarbiya bera oladi va mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadga to'laqonli erisha oladi. Agar tarbiyachi lavozim yo'riqnomasiga asosan barcha vazifalarini kasbini suygan holda bajarsa albatta yosh avlodni kelagi uchun asosiy tamal toshini qo'ygan bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ishlaydigan har bir pedagog xodim ham albatta bolajon bo'lishi shart va zarur. Chunki bu sohada bolalarni sevgan va bolalarga nisbatan mehribon bo'lgan pedagog xodimgina ishlay oladi va jamiyatga kerakli shaxslarni yetishtirish uchun harakat qiladi. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga integrativ yondashuv asosida tayanch kompetensiyalarini takomillashtirishning yangicha usullarini zamon bilan hamnafas holda faoliyat olib borishi bu zamon talabidir. Kompetensiyabolaning bolim, ko'nikma, malaka va qadriyatlarini majmuidir. Kompetentli bola o'z bilim, ko'nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo'llashi, o'z maqsadiga erishishi va rivojlanishning har bir bosqichida yoshiga mos keladigan vazifalarni hal qilishi mumkin. Integratsiyalashuv printsiplari zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishda yetakchi tamoyil hisoblanmoqda. Integratsiyalashuv tamoyilning mohiyati shundan iboratki, maktabgacha yoshdagi bolalarga dunyoning yaxlit ko'rinishi haqida tasavvur beradigan sintetik, yaxlit bilim tizimini yaratish istagi xisoblanadi. Natijada ularda o'zlikni anglash xissi rivojlanib ijtimoiylashish, muammoli vaziyatlarga yechim topish layoqati shakllanadi. Natijada jamiyat qonunlariga amal qilish asosida maktabgacha ta'lim yo'nalishi pedagoglarida faol fuqarolik kompetensiyasi shakllanadi.

Аннотация: В статье освещаются требования к воспитателям по совершенствованию базовых компетенций дошкольников на основе

интегративного подхода. Только в том случае, если каждый педагог является хорошим специалистом в своей профессии, он может воспитывать и воспитывать подрастающее поколение с использованием новейших технологий и с помощью методов, которые легко объяснить большому количеству детей, которые быстрее усваиваются в сознании ребенка, а в то же время интересны детям и могут в полной мере достичь цели обучения. Если воспитатель выполняет все свои обязанности согласно должностной инструкции, он обязательно заложит фундамент будущего молодого поколения. Каждый педагог, работающий в дошкольной образовательной организации, должен быть ребенком. Потому что только педагог, любящий детей и доброжелательный к детям, может работать в этой сфере и работать над воспитанием нужных обществу людей. Для этого в дошкольной образовательной организации является требованием времени внедрять новые методы совершенствования основных компетенций своих воспитанников на основе интегративного подхода. Компетентность – это совокупность знаний, умений, навыков и ценностей ребенка. Грамотный ребенок может мобилизовать и применять свои знания, умения и навыки в конкретной ситуации, добиваться поставленной цели и решать соответствующие возрасту задачи на каждом этапе развития. Принцип интеграции считается ведущим принципом в развитии современной системы образования. Суть принципа интеграции заключается в том, что рассматривается стремление к созданию синтетической, целостной системы знаний, дающей дошкольникам представление о целостном взгляде на мир. В результате они развивают чувство идентичности, социализируются и находят решения проблемных ситуаций. В результате у педагогов дошкольного образования формируется активная гражданская компетентность, основанная на следовании законам общества.

Annotatsiya:: The article highlights the requirements for educators to improve the basic competencies of preschoolers based on an integrative approach. Only if each teacher is a good specialist in his profession, he can educate and educate the younger generation using the latest technologies and with the help of methods that are easy to explain to a large number of children, which are quickly assimilated in the mind of the child, and at the same time time are interesting for children and can fully achieve the purpose of learning. If the educator fulfills all his duties in accordance with the job description, he will certainly lay the foundation for the future young generation. Every teacher working in a preschool educational organization must be a child. Because only a teacher who loves children and is friendly to children can work in this area and work on educating people who are needed by society. To do this, in a preschool educational organization it is a requirement of the time to introduce new methods for improving the basic competencies of their pupils based on an integrative approach. Competence is a set of knowledge, skills, abilities and values of a child. A literate child can mobilize and apply his knowledge, skills and abilities in a particular situation, achieve the goal and solve age-appropriate tasks at each stage of development. The principle of integration is considered to be the leading principle in the development of the modern education system. The essence of the principle of integration lies in the fact that it considers the desire to create a synthetic, holistic system of knowledge that gives preschoolers an idea of a holistic view of the world. As a result, they develop a sense of identity, socialize and find solutions to problem situations. As a result, preschool teachers develop active civic competence based on following the laws of society.

Kalit so'zlar: integrativ, tayanch kompetensiya, bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat, tarbiyachi, konsepsiya, texnologiya.

Ключевые слова: интегративная, базовая компетентность, знание, умение, компетенция, ценность, воспитатель, концепция, технология.

Key words: integrative, basic competence, knowledge, skill, competence, value, educator, concept, technology.

Kirish. Maktabgacha ta'lim bolaning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. U ta'limning keyingi bosqichlarida, shuningdek, butun hayoti davomida rivojlanib boradi. Integratsiyalashuv tamoyilning mohiyati shundan iboratki, maktabgacha yoshdagi bolalarga dunyoning yaxlit ko'rinishi haqida tasavvur beradigan sintetik, yaxlit bilim tizimini yaratish istagi hisoblanadi. Natijada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida o'zlikni anglash hissi rivojlanib ijtimoiylashish, muammoli vaziyatlarga yechim topish layoqati shakllanadi. Natijada jamiyat qonunlariga amal qilish asosida maktabgacha ta'lim yo'nalishi pedagoglarida faol fuqarolik kompetensiyasi shakllanadi.

Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan texnika va axborot kamunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr tarbiyachisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik psixologik bilimlarni, o'z ishini chuqur bilishini va yuksak tafakkurini, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachilar tarbiya shakllarining optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini, turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Jamiyatda tarbiyachi modeli o'z mahoratiga ega bo'lishi tarbiya samaradorligini ta'minlovchi shaxs bo'libgina qolmasdan ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro'e'tiborini ham oshiradi, tarbiyalanuvchilarga unga nisbatan hurmat yuzaga keladi. Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, tarbiyachilar, hamkasblar, hamda ota – onalar bilan munosabatda muvofaqqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi. Pedagogik mahoratga ega bo'lgan har bir pedagog o'z kasbini va ma'suliyatini to'g'ri anglagan holda tarbiyalanuvchilarga to'g'ri ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qiladi va tarbiyalanuvchilarga tayanch kompetensiyalari rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Qachonki tarbiyachi kasbining mutaxassisi bo'lsagina ya'ni kasbiy savodxonlikga ega bo'lsagina tarbiyalanuvchilarga yetarli bilim, malaka, ko'nikmalarni shakllantira oladi.

Metod. Ta'lim metodi- o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoidava usullar tizimini tavsiflaydi. Ta'lim texnologiyasi – ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-boschiq amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardansamaralari, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarishni ifodalaydi. Integratsiya-ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-birlariga qo'shilishi hamda bir butunga aylanishi demakdir. M.G.Chepikov o'zining «Integratsiya nauki» kitobida integratsiya so'zi asosida integral yotishini asoslab bergan. Shu sababli biz integratsiya ta'riflariga to'xtalishni lozim topdik. «Integratsiya» atamasi nisbatan yangi bo'lib, mazmun va mohiyat jihatdan uzoq tarixga ega. Integratsiya – juda keng ma'noli tushuncha. Bugungi kunga kelib, kishilar o'qitishda integratsiya jarayonining mohiyatini, uning rivojlantiruvchi funksiyalarining amalda qo'llanilishi, sayyoramizdagi muhim ekologik muammolarni hal qilish va yerda hayotni saqlab qolish mumkinligini anglagan holda, unga katta e'tibor qaratmoqdalar. Ayniqsa, osh avlodning ilmiy dunyoqarashini, ularning ekologik madaniyatini shakllantirishda, ta'limda integratsiya jarayonining muhimligi dunyo olimlari tomonidan alohida qayd etilmoqda. Ta'limda integratsiya – bilimlarning bir-biri bilan organik birlashishi va yangi, yagona barqaror umumlashgan-yaxlit bilimni hosil qilish degan ma'nolarni anglatadi. Integratsiya tushunchasiga berilayotgan ta'riflar

turlicha bo'lib, bu ta'riflarning umumiylik tomoni: integratsiya-bu atrofimizdagi borliqqa yaxlit, bir butun ob'ekt sifatida qarashga erishishdan iborat.»Integratsiya» tushunchasi, bevosita XVIII asrlarda G.Spenser tomonidan o'z qo'lyozmalarida qo'llanilgan

Kompetensiya-bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatda ko'rinishi.

Kompetensiya (lot.competo-erishyapman, munosibman, loyiqman) –u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba. O'qituvchi - muallimlarning shaxsiy ijtimoiy sifatlariga azaldan e'tibor qaratib kelingan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, pedagogga qo'yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan.

Mulohaza. Ta'limdagi kompetensiyaga asoslangan yondashuv muammosi XX-asrda ko'rib chiqilgan, ammo ushbu innovatsion kontseptsiya amalda faqat XXI-asrda paydo bo'lgan.

Jamiyatning jadal rivojlanish sur'atlari tufayli bolalar bog'chalari va maktablari o'z faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'zgartirishga majbur bo'ldilar.

Federal davlat ta'lim standarti joriy qilinganidan keyin maktablar va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tuzilishi sezilarli darajada o'zgardi.Jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun to'laqonli ijtimoiylashishga tayyorgarlik maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlanib, maktabning barcha darajalarida davom etishi kerak. Bunday jarayon bolalar tomonidan kerakli miqdordagi siyosiy va iqtisodiy tushunchalarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmasligi kerak.

Maktabgacha ta'lim tizimidagi kompetensiyaga asoslangan yondashuvning maqsadi zamonaviy voqelikdagi ko'nikmalardan, harakatchanlikdan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir.Yaqinda maktablarga ta'sir ko'rsatgan o'zgarishlar qatorida axborot texnologiyalarini alohida ta'kidlab o'tamiz.

Ta'lim sohasidagi kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish axborotdan to'siqsiz foydalanish uchun ma'lum shart-sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim tizimidagi kompetensiyali yondashuvning asosiy maqsadi bolalarda boshlang'ich muloqot qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bunday rivojlanish faoliyatining yakuniy natijasi nafaqat standart muammolarni yechish, ma'lum bir algoritm asosida harakat qilish qobiliyati, balki asosiy kompetensiyalarni o'zlashtirishdan iboratdir.

Maktabgacha ta'lim tizimidagi kompetensiyaga asoslangan yondashuvning maqsadi jiddiy va o'z vaqtida qaror qabul qilishga qodir bo'lgan ijodiy, faol shaxsni rivojlantirishdir. Albatta bunday tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun tarbiyachidan yuksak pedagogik mahorat talab qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda asosiy kompetensiyalarni shakllantirishda ushbu yondashuvning dolzarbligi nafaqat ma'lum mahorat, ko'nikma, bilimlarni o'zlashtirishda, balki ularning shaxsiy rivojlanishida ham.

Tarbiyalanuvchilarga bilim berish tarbiyachilarning vaholanki barcha pedagoglarning mas'uliyatli burchidir, deb Ibn Sino pedagogning shaxsiyati qanday bo'lishi kerakligi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- beriladigan bilimni talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;
- ta'limda turli usul va shakllardan foydalanish;
- bolaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- fanga qiziqтира olish;
- berilgan bilimlarning eng muhimini ajratib o'qitish;
- bilimlarni talabalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so'zning bolalar hissiyatini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish zarur.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchining, ichki dunyosiga kira olishi, bola shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilishi bilan bog'liq bo'lgan

psixologik kuzatuvlar olib borishi kerak. Bunday pedagog bolaning ruhiyatiga ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham tez fahmlab oladi.

Tarbiyachida nutq o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati hisoblanadi. Bu tarbiyachining kasbi uchun juda muhimdir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida hamkorlikni vujudga keltirish, do'stona muhitni yaratish muammosining muvaffaqiyatli hal etilishi, barcha pedagoglar va maktabgacha ta'lim rahbariyatining egallagan bilim, ko'nikma malakalari va shaxsiy insoniy fazilatlarini egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Tarbiyachi avvalo:

- Yumshoq ko'ngilli, ochiq chehrali, shirinso'zli, bolalarni qanday bo'lsa shundayligicha yaxshi ko'rishi;

- Mehr-muhabbat, qalb g'ururini bolalarga bab-baravar bo'lib berishi, xonada do'stona muhitni yaratish va bolalarning o'quv motivlarini rivojlantiruvchi kuchrag'batlantirish metodlari ekanligini anglash;

- Tarbiyalanuvchilarning taqdiri, baxti va kelajagi uchun mas'ul ekanligini chuqur his etish, ularning nafsoniyati va qadr-qimmatini e'zozlash;

- Har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchilarga qo'pollik qilmaslik, haqorat qilish va baqirish, taqdid va qo'rqitishdan o'zini tiyishi lozim;

Tarbiyalanuvchilarni tushuna olishi, ularning his-tuyg'ularini qadrlash, tashvishlari, iztiroblarini yengishiga yordam berishi, yoshlik va psixologik rivojlanishda o'ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini bilishi lozim.

Barchamizga ma'lumki, shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok eta olishi unda shakllangan kompetensiyalarga bevosita bog'liqligi yaqqol ko'rinib turipti. Tarbiyachi jamiyatda o'z o'rnini va ahamiyatini rivojlantirishda uning o'z faoliyati davomida egallagan bilim ko'nikma va malakalari muhim ahamiyat kasb etadi. V.A.Slastelin tarflashicha, pedagogik qobiliyat shaxsning kasbiy yo'nalishidagi yuqori ko'rinishi bilan har qanday faoliyat qobiliyatning asosiy ko'rsatkichi uning fikricha, maxsus umumlashgan malakalarni egallaganligidir. Tarbiyachilik kasbiy bilimlarining xususan pedagogik psixologik bilimlarining yetishmasligi yoki uning rad etilishi va hatti – harakati unga yetarlicha e'tibor bermaslik ko'pgina hollarda tarbiyachi tayyor materiallardan foydalanib o'z ustida izlanishlarni to'xtatib qo'yadi. Bu esa tarbiyachi shaxsiga nisbatan bilimsizlik darajasini olib keladi. Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg tarbiyachining jamiyatda o'z o'rnini egallash uchun doimiy ravishda fanlarni mutoala qilish bilan shug'ullanishi haqida gapirib, shunday degan edi: "O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o'qituvchidan hech qanday natija kutib bo'lmaydi." Tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi o'zi yashab turgan tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo'lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi darkor. Shuningdek, pedagog tarbiyachining hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtayi nazardan yondashuvi bolani har tamonlama rivojlantirish mufaqqiyatni amalga oshirishga imkon beradi. L.Y.Kolnmskiy o'z tadqiqotida tarbiyachining bolalarga munosabati so'ssiz tarbiyachi mehnati muvaffaqiyatlarida hal qiluvchi rol o'ynashi hamda pedagogik mahoratning muhim tamoni bo'lib hisoblanishini ta'kidlagan edi. Uning fikricha tarbiyachi bilan bolalarning o'zaro munosabati ko'p jihatdan aynan mana shu jarayon xarakteriga bog'liqdir. Taniqli rus pedagogi A.S.Makarenko o'z asarlarida o'qituvchining kasbiy fazilati to'g'risida fikrlarini quyidagicha bayon qiladi: «Pedagog darsda ma'lum bir o'ziga xos rol o'ynamasligi mumkin emas. Sinf sahnasida rol o'ynashni bilmaydigan o'qituvchi kasbiy faoliyat olib borolmaydi. U ma'lum ma'noda aktyor. Bizning xulq-atvorimiz, fe'limiz, xarakterimiz biz uchun pedagogik qurol bo'lishi ham aslo mumkin emas. Bolalarni qalb va ko'ngil azoblari

bilan, hijronli his-tuyg'ularimiz yordamida tarbiyalashga umuman yo'l qo'yib bo'lmaydi. Axir biz insonmiz. Har qanday boshqa kasb egalarida ko'ngil zahmatisiz ish bitirish mumkin bo'lsa, pedagog ham ko'ngil azobisiz faoliyat olib borishi lozim bo'ladi. O'quvchiga bazan muloqotda ko'ngil azobini namoyish etishga to'g'ri keladi. Buning uchun pedagog sahnadagi aktyordek ijobiy rol o'ynashni ham bilishi kerak va uni amalda qanday qo'llashni ham anglashi darkor.

Xulosa va tavsiyalar. Maktabgacha tarbiya tashkilotida vakolatga asoslangan yondashuv doirasida tarbiyachilar bolalar uchun syujetli va rolli o'yinlarni ishlab chiqadilar, ularga asosiy vakolatlarni shakllantirishga hissa qo'shadigan turli xil tadbirlarni taklif qiladilar

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim tizimining o'ziga xos va demokratiklashtirilishi o'quv jarayoniga o'zgacha talab va o'zgacha pedagogik munosabatlarni kashf etadi. Bu jarayon mazmun mohiyatdan avvalgidan tubdan farqlanadi. Zamonaviy ta'lim tashkilotlaridagi shart-sharoitlar va yurtboshimiz yaratgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish barcha pedagoglarning zimmasiga yuklatilgan. Har bir inson qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iyy nazar o'z kasbini sevishi va astoidal bajarishi lozim. Shundagina rivojlanayotgan mamlakatimizning ravnaqiga o'z hissasini qo'shgan bo'ladi.

Ta'limdagi kompetensiyali yondashuv - bu fuqaro va vatanparvarni shakllantirishning bir variantidir. Kompetentlik - bu bilimlarni namoyon etishning o'ziga xos turi bo'lib, shaxsning umumiy intellektual rivojlanishida, kasbiy masalalarni maksimal darajada samarali hal qila bilish va tevarak atrofdagi ob'ektiv baholay bilish imkonini beruvchi aqliy tajribaning tarkibiy qismlari, axborotni qayta ishlash mexanizmi, individual ravishda intellektual faoliyatni tanlay bilish ko'nikmasining shakllanganligida o'z ifodasini topadi. Xorijiy adabiyotlar tahlilida, kompetentlik "chuqur bilimlar egasi", "murakkab masalalarni yechish qobiliyati", "o'z paytida dolzarb faoliyatni amalga oshirish qobiliyati" kabi ma'nolarni anglatadi. Kompetentlik o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. . A. Rajabova, M.B. Abduzaxidova, Q. SH. Begaliyev "Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda ta'lim tizimi samaradorligi va kreativligini takomillashtirish". Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings. Volume 1, 1st October 2022

2. Толипов Ф.К., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. –Т.: Фан, 2006

3. Nasimova Nasiba Kurban kizi, Kasimova Manzura Abdullayevna. MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN ISSN 2694-9970 <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/1733>